TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI



- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi

№9-SON


2026-yil, sentabr

tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz

https://t.me/tibbbiyot_2100


Litsenziya raqami: №745444













Tahrir hay’ati a’zolari:



BOSH MUHARRIR:
Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

Tahrir hay’ati a’zolari:



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna
Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

Aripkhodjaeva Shakhzoda
resident doctor in national medical center

"TIBBIYOT TA’LIMI VA INNOVATSIYALARI"
ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2024-yil 9-oktabrdan boshlab c-5669651 raqami ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm

MUNDARIJA

TRIAMSINOLON PREPARATI YORDAMIDA YUZ VA BO‘YIN SOHASIDA JOYLASHGAN YANGI VA ESKI KELOID CHANDIQLARNI DAVOLASH SAMARADORLIGINI TAQQOSLASH 8
Boymuradov Shuhrat Abdujalilovich, G‘aybullayev Javohir G‘afurovich

SEREBROVASKULYAR KASALLIKLARDA BUYRAK SHIKASTLANISHINING ISHEMIK-GIPOKSIK MEXANIZMLARI: HIF-1α VA TGF-β1 KO‘RSATKICHLARINING YOSHGA BOG‘LIQ O‘ZGARISHLARI 16
Abdullaev Nodirbek Uroyimjonovich, Mamajonov Iqboljon Maribjonovich

RESULTS OF THE STUDY OF CERTAIN CYTOKINES IN PATIENTS WITH THYROID CANCER 23
Sulaymanov Dilshod Abdirakhimovich, Sabirov Jakhongir Ruziyevich, Yigitaliev Alisher Bakhodirovich, Sarvar Temurovich Islomov

QALQONSIMON BEZ SARATONINING KLINIK KECHUVI XUSUSIYATLARIGA BOG‘LIQ HOLDA INTERLEYKINLAR DINAMIKASINI BAHOLASH 28
Sulaymanov Dilshod Abdiraximovich, Sabirov Jakhongir Ro‘ziyevich, Yigitaliyev Alisher Baxodirovich, Sarvar Temurovich Islomov

МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ГНОЙНО-ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ОРГАНОВ РЕПРОДУКТИВНОЙ СИСТЕМЫ ЖЕНЩИН 34
Фозилбеков Рузикул Анаркулович

DISCRIMINATIVE PERFORMANCE OF HEMATOLOGICAL PARAMETERS FOR IDENTIFYING B-THALASSEMIA CARRIERS: A SECONDARY ANALYSIS OF AN OPEN-ACCESS SCREENING DATASET 47
Alimov Farruh Shuhrat ugli

NEUROLOGICAL COMPLICATIONS ASSOCIATED WITH EPIDURAL ANESTHESIA IN OBSTETRIC PATIENTS: A CLINICAL-STATISTICAL ANALYSIS 52
Ikromova Mufazzal Abdurashidovna, Yakubova Marxamat Mirakramovna

PROSTATA BEZI SARATONI DAVOLANGANIDAN KEYIN URODINAMIK TEST NATIJALARINING TAHLILI 58
Haqqulov Erkin Bekmirzayevich, Alimov Jaloliddin Usmonxon o‘g‘li, Rahmatullayev Akmaljon Ortig‘ali o‘g‘li, Sabirov Akmaljon Alijon o‘g‘li

КОЛИЧЕСТВЕННАЯ 3D-КАТЕГОРИЗАЦИЯ ПЕРЕЛОМОВ МЫЩЕЛКОВОГО ОТРОСТКА НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ: МОРФОМЕТРИЧЕСКИ-РОТАЦИОННО-ДИСЛОКАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ ТЯЖЕСТИ И ВЫБОРУ ЛЕЧЕБНОЙ ТАКТИКИ 63
Мусаев Шамшодбек Шухратович, Шомуродов Кахрамон Эркинович, Мухиддинов Шахризод Мухиддин угли

MECHANISM-DEPENDENT KINETICS OF BONE REMODELING AND INFLAMMATORY MARKERS AFTER COMBINED MAXILLOFACIAL TRAUMA 69
Khatamov Ulugbek Altibayevich

BACHADON MIOMASINING TURLI TOPIK VARIANTLARI MAVJUD AYOLLARDA EXOGRAFIK TADQIQOT NATIJALARI 75
Muxitdinova Mexriniso Yorkibekovna, Shokirova Sadoqatxon Muxammatsoliyevna

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ ПРИ НОРМОТЕНЗИВНОЙ ГЛАУКОМЕ 81
Газизова Лилия Комиловна

КЛИНИЧЕСКИ ЗНАЧИМАЯ РЕКЛАССИФИКАЦИЯ ФЕНОТИПА ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ ПОСЛЕ КАРДИО-МРТ: ОСОБОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРИ ПОСТИНФАРКТНОМ КАРДИОСКЛЕРОЗЕ 84
Таирова Мадина

СКРЫТОЕ РУБЦОВО-ФИБРОЗНОЕ ПОРАЖЕНИЕ МИОКАРДА У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ: ДОБАВОЧНАЯ ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ КАРДИО-МРТ 89
Ходжибекова Юлдуз Маратовна

СЫВОРОТОЧНЫЕ РОСТОВЫЕ ФАКТОРЫ И ПРОВОСПАЛИТЕЛЬНЫЕ ЦИТОКИНЫ КАК МАРКЕРЫ ПРОГРЕССИРОВАНИЯ ПЛАЦЕНТАРНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН 96
Джураева Дилдора Мухитдиновна, Умирова Мухаббат Абдусатторовна

ОСНОВНЫЕ БИОХИМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРОВИ У ДЕТЕЙ 101
Сарварова Лейла Биналиевна

ДИССОЦИАЦИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ОТВЕТА И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НА ФОНЕ КАРДИОРЕАБИЛИТАЦИИ У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ, ОЖИРЕНИЕМ И МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ 105
Ташкенбаева Наргиза Фархадовна, Курбанов Равшанбек Давлетович

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СКРИНИНГА СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОГО РИСКА НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ARCUS SENILIS В ПЕРВИЧНОМ ЗВЕНЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ 112
Ганиева Мафтуна Ракибаевна

OYOQ VENOZ TROFIK YARALARINI KOMPLEKS DAVOLASHNI KLINIK-MORFOLOGIK ASOSLASH: MUAMMONING ZAMONAVIY HOLATI, HAL ETILMAGAN MASALALAR VA ISTIQBOLLARI 117
Hamroyev Xudoyshukur Nutfilloyevich

GENERALIZATSIYALASHGAN EPILEPSIYADA KLINIK, NEYROPSIXOLOGIK VA NEYROTROFIK KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA INTEGRAL BAHOLASH MODELINI ISHLAB CHIQISHGA DASTLABKI YONDASHUV 123
Fayziyeva Ra’nogul Hoji qizi, Azizova Ra’no Bahodirovna

TIZZA BO‘G‘IMINING YIRINGLI OSTEOARTRITIDA KLINIK-LABORATOR VA INSTRUMENTAL KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA INDIVIDUAL DAVOLASH TAKTIKASINI TANLASH 128
Shoimov Shomurod Eshpo‘lat o‘g‘li

MULTIDIMENSIONAL EFFECTS OF PSYCHOMOTOR REHABILITATION AFTER ISCHEMIC STROKE: A CONTROLLED STUDY OF MOTOR, FUNCTIONAL, BALANCE, AND EMOTIONAL RECOVERY 134
Maftuna Baxtiyor qizi Ibodulloyeva, Zarifboy R. Ibodullayev

КЛИНИКО-СТОМАТОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОСТОЯНИЯ ТВЁРДЫХ ТКАНЕЙ ЗУБОВ У ЛИЦ С РАЗЛИЧНЫМ УРОВНЕМ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ ЭКСПОЗИЦИИ 145
Шукурова Умида Абдурасуловна, Хатамова Шахло Алтибаевна

TISH RIVOJLANISHINING GISTOLOGIK BOSQICHLARI: ODONTOGENEZ JARAYONIDA HUJAYRAVIY DIFFERENSIALLANISH VA EPITELIAL-MEZENXIMAL O‘ZARO TA’SIRLAR 154
Saidov Quvonchbek Komil o‘g‘li, Bazarova Gulnora Rustamovna

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗРАБОТКЕ ПЕРЦЕНТИЛЬНЫХ КРИВЫХ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ: ОПЫТ РАЗНЫХ СТРАН И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА 162
Алимова Насиба Усмановна, Гилязетдинов Камиль Наильевич, Тиллаева Дильноза Толиповна

HAVONI IFLOSLANTIRUVCHI MODDALARNING SURUNKALI TA’SIRI NATIJASIDA NASLNING NAFAS YO‘LLARI DEVORIDAGI LIMFOID TO‘QIMALARNING TUG‘RUQDAN KEYINGI RIVOJLANISHIGA TA’SIRINI IMMUNOGISTOKIMYOVIY BAHOLASH USULI 169
Azizova Feruza Xusanovna, To‘laboyev Sunnatulla Olimjon o‘g‘li, Saloydinov Azmiddin Shariddin o‘g‘li, Ergasheva Feruza Davlatmirzayevna

PROFILAKTIKA VA GIGIYENA 174
Saidov Quvonchbek Komil o‘g‘li, Bazarova Gulnora Rustamovna

“ONANING HAVONI IFLOSLANTIRUVCHI MODDALARGA SURUNKALI TA’SIRLANISHI SHAROITIDA NASL JIGARINING POSTNATAL RIVOJLANISHI VA DIFFERENSIALLANISHINING XUSUSIYATLARINI IMMUNOGISTOKIMYOVIY BAHOLASH USULI” 181
Azizova Feruza Xusanovna, Abdusalomov G‘ayrat Abdusalomovich, Mamasidikov Soatjon Sodikovich, Xasanov Qobil Xakimovich

РОЛЬ ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ РЕПРОДУКТИВНОЙ СИСТЕМЫ В СТРУКТУРЕ ПСИХОСОМАТИКИ ЖЕНЩИН 185
Фозилбеков Рузикул Анаркулович

СВЯЗЬ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РН СЛЮНЫ И СОСТОЯНИЯ ПАРОДОНТА У ПАЦИЕНТОВ С ГАСТРОЭЗОФАГЕАЛЬНОЙ РЕФЛЮКСНОЙ БОЛЕЗНЬЮ 198
Шокирова Хуринисо Абдумавлон кизи

КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТЬ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ С СОХРАНЕННОЙ ФРАКЦИЕЙ ВЫБРОСА У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНЬЮ СИСТЕМА ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ С ОСТРЫМ КОРОНАРНЫМ СИНДРОМОМ 203
Маджидова Гулбахор Толибовна, Намозов Умид Тургун угли

MIASTENIYA GRAVISDA MIKRONUTRIENTLAR VA MIKROELEMENTLAR DISREGULYATSIYASI: KLINIK DALILLAR, BIOLOGIK ASOSLAR VA TADQIQOTDAGI BO‘SHLIQLAR 210
Shukrulloyeva Nodirabegim Akbarovna

СИСТЕМА ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ С ОСТРЫМ КОРОНАРНЫМ СИНДРОМОМ 215
Маджидова Гулбахор Толибовна, Холикулова Мафтуна Маликовна

TO‘QIMACHILIK SANOATI AYOL XODIMALARIDA SURUNKALI TARQOQ PARODONTIT RIVOJLANISHINING XAVF OMILLARI VA DAVOLASH SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSLARI 226
Odinaxon Umarova Nu’monovna, Ahmedov Abdumutalib Yo‘ldoshevich

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПОВРЕЖДЕНИЙ КОЛЕННОГО СУСТАВА У ФУТБОЛИСТОВ В СПОРТИВНОЙ МЕДИЦИНЕ 232
Анваров Абдуманнон Абдурахмонович, Ким Ольга Анатольевна, Ким Вероника Александровна

XAVF OMILLARI ASOSIDA GLAUKOMANI ERTA ANIQLASH SKRININGI VA PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 236
Ermatova Bekzoda Oybek qizi

МОДИФИКАЦИЯ ТИРЕОИДНОГО СТАТУСА У РАБОТНИКОВ АЛМАЛЫКСКОГО ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО ЗАВОДА ПОД ВЛИЯНИЕМ ТЕХНОГЕННЫХ ЭНДОКРИННЫХ ДИЗРАПТОРОВ 239
Алимова Насиба Усмановна, Каланходжаева Шахноза Бахтияровна, Жонсаидова Гавхар Тангиберди кизи

KORXONALARDA SHOVQIN VA TEBRANISHLI VAZIYATLARNI TEKSHIRISH VA BAHOLASH, CHANGGA OID PATOLOGIYALAR HAMDA SOG‘LOMLASHTIRISH TADBIRLARI 245
Bokiyev Kamriddin Toshmatovich

ПРИМЕНЕНИЕ МАГНИТНО-РЕЗОНАНСНОЙ ТОМОГРАФИИ В СИСТЕМЕ ДИНАМИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ КОМПЛЕКСНОЙ ДИАГНОСТИКИ И РЕАБИЛИТАЦИИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ ПОСЛЕ ТРАВМ КОЛЕННОГО СУСТАВА 250
Анваров Абдуманнон Абдурахмонович, Ким Ольга Анатольевна, Турсунов Шоҳжаҳон Мустафоевич, Жураев Элбек Арзикулович, Анварова Малика Абдурахмоновна

ОПТИМИЗАЦИЯ ЛОКАЛЬНЫХ МИНИИНВАЗИВНЫХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ ПОСТПАНКРЕАТИЧЕСКИХ ПЕРИПАНКРЕАТИЧЕСКИХ АБСЦЕССОВ: КЛИНИКО-СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ 260
Журабоев Ойбек Улугбек угли

RAQAMLI TASVIRLAR VA KLINIK MA’LUMOTLARNI TAHLIL QILISHDA RAQAMLI TIBBIYOTNING O‘RNI 266
Yakubov G‘olib Akbarovich

ГОРМОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПОСЛЕ БАРИАТРИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ 272
Шагазатова Барно Хабибуллаевна, Кудратова Насиба Алишеровна

BOLALARDA NOEPILEPTIK PAROKSIZMAL HOLATLARNING KLINIK-SEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DIFFERENSIAL-DIAGNOSTIK MEZONLARI 277
Bobomurodova Maftuna, Akmal G‘aybiyev Ahmadjonovich Xikmatillo qizi, Kuziyev Shoxbozjon Izzatillo o‘g‘li

ИЗМЕНЕНИЕ ИММУНОЛОГИЧЕСКОГО СТАТУСА БОЛЬНЫХ С МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ 284
Бекмурадова Махсуда Салхидиновна

TUBERKULEZ VA QANDLI DIABET BILAN KOMORBID HOLATDA TUR VA TUBERKULEZ BILAN BEMORLARDA IMMUNOLOGIK VA SITOKINLAR PROFILI MARKERLARINING PROGNOSTIK IMKONIYATLARINI ANIQLASH 291
Xolmatova Gulhayo Azimjanovna, Xalimova Zamira Yusupovna, Jurayeva Mohigul Azimjanovna, Ashuraliyeva Mavludaxon Azimovna

GIPOGONADOTROP GIPOGONADIZMLI AYOLLARDA ERTA MIOKARD REMODELLANISHINING ELEKTROKARDIOGRAFIK VA EXOKARDIOGRAFIK BELGILARI: KASALLIK DAVOMIYLIGI VA GORMONAL O‘RNINI BOSUVCHI TERAPIYANING AHAMIYATI 296
Hamroyeva Dilafruz Ismatullo qizi, Xolova Dilorom Sharifovna

МУЛЬТИМАРКЕРНЫЙ ПОДХОД К РАННЕЙ ДИАГНОСТИКЕ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ 2-ГО ТИПА: РОЛЬ NT-PROBNP И SST2 300
Алимов Анвар Валиевич, Алимова Насиба Усмановна, Усманова Истора Абдуворисовна

LEYKEMIYA HUJAYRALARINI SEGMENTATSIYALASH UCHUN DARVOZALI KO‘P MASSHTABLI XUSUSIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISH 306
Muksimova Shahnoza Shamuhitovna, Umirzakova Sabina Totlibayevna, Isxakova Nargiza Patxillayevna

LEYKEMIYA HUJAYRALARINI SEGMENTATSIYALASH UCHUN DARVOZALI KO‘P MASSHTABLI XUSUSIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Muksimova Shahnoza Shamuhitovna
Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Umirzakova Sabina Totlibayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Isxakova Nargiza Patxillayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Periferik qon surtmasi tasvirlarida leykemiya hujayralarini segmentatsiyalash sinf ichidagi yuqori o‘zgaruvchanlik, hujayra chegaralarining aniq ifodalanmasligi va hujayralarning tez-tez bir-birini qoplashi tufayli murakkab masala bo‘lib qolmoqda. Konvolyutsion va transformerga asoslangan zamonaviy usullar yuqori natijalarni ko‘rsatsa-da, ular ko‘pincha chegaralarni aniqlash sifatini hisoblash xarajatlari evaziga qurbon qiladi va bu ularning amaliy joriy etilishini cheklaydi. Ushbu ishda biz chegaralarni aniq modellashtirishni samarali ko‘p masshtabli xususiyatlar tasviri bilan birlashtiruvchi, leykemiya hujayralarini segmentatsiyalashga mo‘ljallangan yangi chuqur arxitekturani taklif etamiz. Yondashuvimizning markazida struktura tafsilotlarini saqlagan holda ajratuvchi xususiyatlarni o‘rganishni kuchaytiruvchi adaptiv xususiyatlarni takomillashtirish strategiyasi turadi. Og‘ir tayanch tarmoqlar yoki global e’tibor mexanizmlariga tayanish o‘rniga, taklif etilgan arxitektura yengil bo‘lib qolgan holda ham lokal, ham kontekstual axborotni qamrab oladi. Etalon ma’lumotlar to‘plamlarida o‘tkazilgan keng ko‘lamli tajribalar taklif etilayotgan usul Dice va IoU kabi bir qator baholash mezonlari bo‘yicha zamonaviy modellardan ustun ekanini hamda buni sezilarli darajada kam parametrlar va past FLOPs ko‘rsatkichi bilan amalga oshirishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, usul mavjud yondashuvlarning asosiy zaif tomoni hisoblangan kichik va bir-birini qoplaydigan hujayralarni segmentatsiyalashda yuqori natija beradi. Ushbu natijalar aniqlik, samaradorlik va umumlashtirish qobiliyati o‘rtasidagi qulay muvozanatni namoyish etib, usulni real klinik amaliyotga joriy etish hamda keng ko‘lamli gematologik tahlil uchun istiqbolli nomzod sifatida ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Leykemiya hujayralarini segmentatsiyalash, periferik qon surtmasi, tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalash, qon hujayralarini tahlil qilish, o‘tkir limfoblastik leykemiya, gematologik tasvirlar tahlili.

Abstract: Segmenting leukemia cells in peripheral blood smear images remains challenging due to high intra-class variability, poorly defined cell boundaries, and frequent cell overlap. While recent convolutional and transformer-based methods achieve strong performance, they often trade off boundary precision against computational cost, limiting their practical deployment. In this work, we propose a novel deep architecture for leukemia cell segmentation that couples accurate boundary modeling with effective multi-scale feature representation. Central to our approach is an adaptive feature refinement strategy that enhances the learning of discriminative features while preserving fine-grained structural detail. Rather than relying on heavy backbones or global attention mechanisms, our design remains lightweight while still capturing both local and contextual information. Extensive experiments on benchmark datasets show that the proposed method not only surpasses state-of-the-art models across multiple evaluation metrics, including Dice and IoU, but also does so with substantially fewer parameters and lower FLOPs. Notably, our method excels at segmenting small and overlapping cells, the primary failure mode of existing approaches. These results demonstrate a favorable balance among accuracy, efficiency, and generalization, positioning the method as a strong candidate for real-world clinical deployment and large-scale hematological analysis.

Key words: Leukemia cell segmentation, peripheral blood smear, medical image segmentation, blood cell analysis, acute lymphoblastic leukemia, hematological image analysis.

Аннотация: Сегментация лейкозных клеток на изображениях мазков периферической крови остается сложной задачей из-за высокой внутриклассовой изменчивости, нечеткого отображения границ клеток и частого взаимного перекрытия клеток. Хотя современные методы на основе сверточных и трансформерных архитектур демонстрируют высокие результаты, они зачастую жертвуют качеством выделения границ ради вычислительных затрат, что ограничивает их практическое внедрение. В данной работе мы предлагаем новую глубокую архитектуру для сегментации лейкозных клеток, объединяющую точное моделирование границ с эффективным многомасштабным представлением признаков. В основе нашего подхода лежит стратегия адаптивного уточнения признаков, усиливающая изучение дискриминативных признаков при сохранении структурных деталей. Вместо опоры на тяжелые базовые сети или механизмы глобального внимания предложенная архитектура охватывает как локальную, так и контекстную информацию, оставаясь легковесной. Обширные эксперименты на эталонных наборах данных показывают, что предлагаемый метод превосходит современные модели по ряду метрик оценки, включая Dice и IoU, достигая этого при значительно меньшем количестве параметров и низких показателях FLOPs. Особенно высокие результаты метод демонстрирует при сегментации мелких и перекрывающихся клеток — основной слабости существующих подходов. Эти результаты демонстрируют благоприятный баланс между точностью, эффективностью и способностью к обобщению, что делает метод перспективным кандидатом для внедрения в реальную клиническую практику и широкомасштабный гематологический анализ.

Ключевые слова: Сегментация лейкозных клеток, мазок периферической крови, сегментация медицинских изображений, анализ клеток крови, острый лимфобластный лейкоз, анализ гематологических изображений.

KIRISH

Leykemiya — suyak ko‘migi va periferik qonda oq qon tanachalarining anomal ko‘payishi bilan xarakterlanadigan, hayot uchun xavfli qon saratonidir. Kasallikni erta va aniq aniqlash davolash rejasini tuzish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega hamda bemorning omon qolishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1]. An’anaviy tarzda leykemiya gematologlar tomonidan periferik qon surtmalarini qo‘lda tekshirish orqali tashxislanadi; bu jarayon ko‘p vaqt talab qiladi, subyektiv hisoblanadi va mutaxassis tajribasiga kuchli bog‘liqdir [2]. Kengaytiriladigan hamda ishonchli diagnostika vositalariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi natijasida qon surtmasi tasvirlarini avtomatik tahlil qilish samarali muqobil sifatida shakllandi [3]. Chuqur o‘qitishdagi, xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) sohasidagi so‘nggi yutuqlar tibbiy tasvirlarni tahlil qilish tizimlarining hujayralarni aniqlash, tasniflash va segmentatsiyalash kabi vazifalarni bajarish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi [4]. Ular orasida hujayralarni segmentatsiyalash alohida ahamiyatga ega, chunki u xususiyatlarni ajratib olish va kasallikni tasniflash kabi keyingi bosqich vazifalarining aniqligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [5]. U-Net [6], Attention U-Net [7], DeepLabV3 [8] hamda transformerga asoslangan tarmoqlar kabi yondashuvlar etalon ma’lumotlar to‘plamlarida yuqori natijalarga erishdi. Shunga qaramay, bir qator muhim muammolar hal etilmagan holicha qolmoqda. Leykemiya hujayralarini segmentatsiyalashdagi asosiy to‘siq hujayra morfologiyasining sezilarli xilma-xilligi, jumladan, o‘lcham, shakl va bo‘yalish intensivligidagi farqlar, shuningdek, bir-birini qoplovchi tuzilmalarning tez-tez uchrashidir [9]. Qon surtmasi tasvirlarida, bundan tashqari, segmentatsiya murakkabligini oshiruvchi murakkab fon, shovqin va artefaktlar bo‘lishi mumkin. Mavjud modellar ko‘pincha kichik va aniq ifodalanmagan hujayra chegaralarini ajratishda qiynaladi, bu esa segmentatsiya aniqligining pasayishiga olib keladi [10].

Bundan tashqari, ko‘plab usullar yuqori hisoblash resurslarini talab qiluvchi katta tarmoqlarga tayanadi, bu esa ularni resurslari cheklangan sharoitlarda, bemor yonida (point-of-care) klinik qo‘llash uchun yaroqsiz qiladi [11]. Hozirgi usullarning yana bir jiddiy cheklovi — ularning ma’lumotlar to‘plamlari bo‘ylab umumlashtirish qobiliyatining pastligi: bitta ma’lumotlar to‘plamida o‘qitilgan modellar boshqa manbalardan olingan tasvirlarga qo‘llanganda, bo‘yash protokollari, tasvirga olish sharoitlari va annotatsiya uslublaridagi farqlardan kelib chiqadigan domen siljishi tufayli odatda samaradorligini yo‘qotadi [12]. Ushbu kamchilik ma’lumotlar o‘zgaruvchanligi muqarrar bo‘lgan real klinik muhitga joriy etishda jiddiy to‘siq hisoblanadi. Ushbu ish yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishga qaratilgan. Biz leykemiya hujayralarini segmentatsiyalash masalasini chuqur o‘qitish asosidagi yondashuv orqali ko‘rib chiqamiz va uchta markaziy masalaga e’tibor qaratamiz: xususiyatlar tasviri, chegaralarni lokalizatsiya qilish hamda ma’lumotlar o‘zgaruvchanligiga barqarorlik. Taklif etilayotgan usul ko‘p masshtabli xususiyatlarni ajratib olishni adaptiv xususiyatlarni takomillashtirish bilan birlashtiruvchi puxta ishlab chiqilgan arxitekturaga asoslanadi va hisoblash samaradorligini yo‘qotmagan holda segmentatsiya aniqligini oshiradi. Yondashuvimiz ochiq kirish imkoniyatidagi qon hujayralari ma’lumotlar to‘plamlarida keng ko‘lamli tajribalar orqali tekshirildi. Natijalar modelimiz Dice koeffitsienti, kesishmaning birlashmaga nisbati (IoU) va bir qator boshqa baholash mezonlari bo‘yicha so‘nggi zamonaviy usullardan ustun ekanini, ayni paytda model murakkabligini kamaytirishini ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Leykemiya hujayralarini periferik qon surtmasi va suyak ko‘migi tasvirlaridan avtomatik segmentatsiyalash so‘nggi yillarda kompyuter ko‘rishi va tibbiy tasvirlarni qayta ishlashning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Leykemiya diagnostikasida hujayralarning morfologik xususiyatlarini, jumladan, yadro shakli, hujayra chegaralari, o‘lchami, teksturasi va bo‘yalish xususiyatlarini aniq ajratib olish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli segmentatsiya bosqichi keyingi tasniflash, hujayralarni sanash va kompyuter yordamida tashxis qo‘yish tizimlarining aniqligini belgilovchi asosiy komponentlardan biri hisoblanadi. Qon surtmasi tasvirlarida hujayralarning o‘lchami va shaklining o‘zgaruvchanligi, hujayralarning bir-birini qoplashi, yadro chegaralarining noaniqligi hamda fon va bo‘yalish intensivligining o‘zgarishi segmentatsiya jarayonini murakkablashtiradi. 2025-yilda e’lon qilingan tadqiqotda ham oq qon hujayralarini segmentatsiyalashning asosiy muammolari sifatida hujayralarning bir-birini qoplashi, o‘lcham va shaklning o‘zgaruvchanligi hamda yetilmagan hujayralarning notekis chegaralari qayd etilgan. Tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalashda chuqur o‘qitish usullarining rivojlanishi ushbu muammolarni hal qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Ayniqsa, U-Net arxitekturasi kodlovchi-dekodlovchi tuzilmasi va skip-bog‘lanishlari orqali yuqori darajadagi semantik xususiyatlarni past darajadagi fazoviy tafsilotlar bilan birlashtirish imkonini bergani sababli biomedikal tasvirlarni segmentatsiyalashda asosiy arxitekturalardan biriga aylandi. Keyinchalik U-Net oilasining U-Net++, U-Net 3+ kabi modifikatsiyalari ishlab chiqilib, turli darajadagi xususiyatlarni yanada samarali birlashtirishga e’tibor qaratildi. U-Net++ kodlovchi va dekodlovchi o‘rtasidagi semantik tafovutni kamaytirish uchun zich va ichma-ich skip-bog‘lanishlardan foydalanadi, U-Net 3+ esa to‘liq masshtabli skip-bog‘lanishlar orqali turli rezolyutsiyalardagi xususiyatlarni birlashtirishga yo‘naltirilgan. Bunday arxitekturalar kichik obyektlar va murakkab shaklli tuzilmalarni segmentatsiyalashda muhim afzalliklarga ega.

Leykemiya hujayralarini segmentatsiyalashga bevosita yo‘naltirilgan tadqiqotlarda ham U-Net oilasidan faol foydalanilmoqda. Jan va hammualliflar periferik qon surtmasi tasvirlaridagi oq qon hujayralarini segmentatsiyalash uchun U-Net++, marker watershed algoritmi va neyron oddiy differensial tenglamalar (ODE) kombinatsiyasini taklif qilgan. Mualliflar ALL-IDB1 va ALL-IDB2 ma’lumotlar to‘plamlaridan foydalangan holda mean IoU bo‘yicha 97,73 %, Dice koeffitsienti bo‘yicha 98,36 % va mean pixel accuracy bo‘yicha 98,97 % natijalarni qayd etgan. Ushbu yondashuv, ayniqsa, bir-biriga tutashib qolgan hujayralarni ajratish masalasida an’anaviy segmentatsiya usullarining cheklovlarini kamaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, mualliflar kelgusida hisoblash murakkabligi va xotira sarfini kamaytirish zarurligini ham ta’kidlagan. Ko‘p masshtabli xususiyatlarni shakllantirish segmentatsiya aniqligini oshirishning yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Qon surtmasi tasvirlarida hujayralarning o‘lchami bir xil bo‘lmagani sababli faqat bitta fazoviy masshtabda olingan xususiyatlar kichik hujayralarning nozik chegaralari yoki yirik hujayralarning umumiy morfologik tuzilishini to‘liq ifodalay olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, xususiyatlar piramidasi va ko‘p masshtabli xususiyatlarni birlashtirishga asoslangan yondashuvlar turli rezolyutsiyalarda joylashgan obyektlarni bir vaqtning o‘zida tasvirlash imkonini beradi. WBC-Net tadqiqotida UNet++ va ResNet elementlari birlashtirilib, aralash skip-yo‘llar orqali ko‘p masshtabli tasvir xususiyatlarini birlashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv oq qon hujayralarini segmentatsiyalashda xususiyatlarni ajratib olish va ularni turli masshtablarda birlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ko‘p masshtabli xususiyatlarni takomillashtirish bilan bir qatorda, e’tibor mexanizmlaridan foydalanish ham tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalashda muhim yo‘nalishga aylandi. Attention U-Net kabi arxitekturalar tarmoqni tasvirning barcha qismlariga bir xil darajada e’tibor qaratish o‘rniga, segmentatsiya uchun muhim bo‘lgan fazoviy sohalarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Bunday mexanizmlar, ayniqsa, hujayra va fon o‘rtasidagi kontrast past bo‘lgan hamda hujayra chegaralari aniq ifodalanmagan tasvirlarda foydali hisoblanadi. Leykemiya hujayralari tasvirlarida bir-biriga yaqin joylashgan yoki qisman bir-birini qoplaydigan hujayralar mavjudligi sababli, ahamiyatli hududlarni adaptiv ravishda ajratib ko‘rsatish segmentatsiya chegaralarini aniqlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Keyingi tadqiqotlarda konvolyutsion tarmoqlar bilan bir qatorda transformerga asoslangan arxitekturalar ham tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalashda qo‘llanila boshlandi. TransUNet transformer mexanizmlarini U-Net arxitekturasi bilan birlashtirib, uzoq masofali bog‘liqliklarni modellashtirish va kuchli semantik xususiyatlarni shakllantirish imkonini beradi. Swin-UNet esa ierarxik Swin Transformer asosida U-Netga o‘xshash segmentatsiya tuzilmasini shakllantiradi. SegFormer kabi modellar esa samarali transformer arxitekturasi yordamida global kontekstual axborotni hisobga olishga yo‘naltirilgan. Bunday yondashuvlarning asosiy afzalligi tasvirning uzoq masofali bog‘liqliklarini modellashtirishdan iborat bo‘lsa-da, ularning hisoblash murakkabligi va xotira talabi yengil klinik tizimlarni ishlab chiqishda muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. 2026-yilda Ou va hammualliflar tomonidan taklif qilingan MTLL modeli limfotsitar leykemiyani tasniflash va hujayra yadrosini segmentatsiyalash vazifalarini yagona ko‘p vazifali tizimda birlashtiradi. Model CNN-Transformer asosidagi gibrid tayanch tarmoqdan foydalanib, lokal tekstura va global semantik axborotni birlashtiradi. Segmentatsiya qismida atrous spatial pyramid pooling va multilayer perceptronlarni birlashtiruvchi AM dekoderi orqali ko‘p

masshtabli kontekstual axborotdan foydalaniladi. Tadqiqotda modelning segmentatsiya natijasi 98,83 % darajasiga yetgani va turli tasvirlash sharoitlari hamda patologik turlar o‘rtasidagi tajribalar orqali umumlashtirish qobiliyati baholangani qayd etilgan. Ushbu natijalar ko‘p masshtabli xususiyatlarni global kontekst bilan birlashtirish leykemiya hujayralari va ularning yadrolarini segmentatsiyalash uchun istiqbolli yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi. So‘nggi davrda Segment Anything Model (SAM) kabi tayanch segmentatsiya modellari ham tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalashda keng o‘

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalash chuqur o‘qitishning, xususan, CNNning paydo bo‘lishi bilan sezilarli darajada rivojlandi. Dastlabki yondashuvlar chegaraviy qiymat bo‘yicha ajratish, qirralarni aniqlash va morfologik amallar kabi klassik usullarga tayangan [13], biroq ular shovqinga, intensivlik o‘zgarishiga va murakkab hujayra tuzilmalariga sezgir bo‘lib chiqdi hamda bu ularning klinik ahamiyatini chekladi. To‘liq konvolyutsion tarmoqlar (FCN) to‘liq bog‘langan qatlamlarni konvolyutsion qatlamlar bilan almashtirib, piksel darajasidagi uzluksiz (end-to-end) segmentatsiyani joriy etdi va ixtiyoriy o‘lchamdagi kirishlar uchun zich bashoratlash imkonini berdi [14, 15]. Biroq FCN tibbiy tasvirlarda chegaralarni aniq ajratish uchun zarur bo‘lgan nozik fazoviy tafsilotlarni saqlab qolishda qiynalgan. U-Net arxitekturasi ushbu cheklovlarni bartaraf etdi va tezda soha uchun asosiy modelga aylandi. Uning o‘tkazib yuborish bog‘lanishlariga ega kodlovchi–dekodlovchi tuzilishi quyi darajadagi fazoviy xususiyatlarni yuqori darajadagi semantik axborot bilan birlashtiradi va aniq segmentatsiya imkonini beradi [16], u leykemiya hujayralarini segmentatsiyalash kabi vazifalarda keng qo‘llanilgan [17]. Keyingi ishlarda U-Net arxitektura o‘zgartirishlari orqali takomillashtirildi: U-Net++ kodlovchi va dekodlovchi o‘rtasidagi semantik tafovutni kamaytirish uchun ichma-ich joylashgan zich skip-bog‘lanishlarni joriy etadi [18], UNet 3+ esa to‘liq masshtabli skip-bog‘lanishlar va chuqur nazorat orqali ko‘p masshtabli xususiyatlarni birlashtirishni kuchaytiradi [19]. Ushbu usullar yondashuvi bo‘yicha farq qilsa-da, ularning barchasi turli o‘lcham va murakkab shakldagi obyektlarni tanib olishni yaxshilaydi.

